

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi

23-mavzu: “Halollik vaksinasi”

Dars maqsadi: 5-8-sinf o‘quvchilarida halollik, poklik, to‘g‘riso‘zlik kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantirish.

Umumiy maqsad: O‘quvchilarda halollik, poklik, rostgo‘ylik kabi axloqiy sifatlarni shakllantirish, halollikning hayotdagi ahamiyatini oddiy misollar orqali tushuntirish.

Annotatsiya: Ushbu mashg‘ulot davomida o‘quvchilarga **halollik nima, nima uchun halol bo‘lish kerak, halollikning foydasi va yolg‘onning ziyoni, oqibatlari haqida** oddiy, tushunarli misollar, ertaklar, rolli o‘yinlar va video lavhalar orqali bayon qilinadi. Dars jarayonida kichik guruhlar bilan ishlash, rasm chizish, muhokama va syujetli o‘yinlar orqali mavzu mustahkamlanadi. “Halollik vaksinasi” iborasi orqali o‘quvchilarga halollik odati insonni himoya qiladigan “ichki kuch” ekani tushuntiriladi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarga halollik, yolg‘on, ishonch tushunchalarini sodda va ravon tushuntirish.
2. Halollikning o‘z hayotlaridagi ahamiyatini anglashlariga yordam berish.
3. Yolg‘onning oqibatlari va halollikning foydasi haqida real misollar orqali xulosa chiqarish.
4. O‘quvchilarda rostgo‘y bo‘lish, o‘ziga va boshqalarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish odatini tarbiyalash.

Asosiy g‘oyalar:

- Halollik – eng kuchli “vaksina”, u odamni yomon odatlardan, aybdan, qo‘rquvdan, yolg‘onning oqibatidan himoya qiladi.
- Yolg‘on – oz bo‘lsa ham, keyinchalik katta muammolarga olib keladi.
- Halol bola – insofli bola; ishonch esa eng qimmat boylik.

Kutiladigan natijalar:

1. Aqliy:

- * O‘quvchilar halollik va yolg‘on o‘rtasidagi farqni tushunadi;
- * Halollikning jamiyatdagi ahamiyatini anglaydi;
- * “Halollik vaksinasi” tushunchasi yuzasidan xulosa chiqaradi.

2. Hissiy va qadriyatli:

- Rostgo‘ylikka, poklikka ijobiy munosabat shakllanadi.
- Halol bo‘lishdan qo‘rqmaslik, aksincha, undan faxrlanish tuyg‘usi hosil bo‘ladi.

3. Amaliy:

- Oddiy hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishni mashq qiladi.
- Guruhli ishlarda o'z fikrini aytib, uni himoya qila oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- O'zaro ishonchga asoslangan munosabatlar mustahkamlanadi.
- Jamoada halollikning o'rni va foydasi anglanadi.

Metapredmet yondashuv:

- **Adabiyot:** halollik haqidagi ertak va hikoyalarni tahlil qilish.
- **Texnologiya:** Halollikni kasblar bilan bog'lash.
- **Media savodxonligi:** videoni ko'rib, undan xulosa chiqarish.
- **Muloqot:** vaziyatli masalalarni muhokama qilish.

Dars hamkori:

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Mashg'ulot shakli: suhbat, video lavha, rolli o'yin, interaktiv topshiriqlar.

DARSNING TUZILISHI

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar! Bugungi darsimiz juda qiziqarli va noodatiy mavzuga bag‘ishlanadi. Mavzuning nomi – **“Halollik vaksinasi”**. Sizlar “vaksina” deganda nimani tasavvur qilasizlar?

O‘quvchilar javob beradi: “Kasallikdan saqlaydi”, “tanani himoya qiladi”, “immunitet hosil qiladi”, “og‘ir kasalliklarning oldini oladi” va hokazo.

O‘qituvchi: Ajoyib! Barchangiz to‘g‘ri aytdingiz. Vaksina tanamizni kasalliklardan himoya qiladi, shundaymi? Endi tasavvur qiling: agar insonni yomon odatlardan – yolg‘on, aldov, o‘g‘rilik, dangasalik, beparvolikdan himoya qiladigan vaksina bo‘lsa, u qanday bo‘lardi?

O‘quvchilar fikr bildiradi.

O‘qituvchi: Ha, bu – halollik vaksinasi! Ya‘ni, halollik insonni har xil “axloqsizlik viruslari”dan himoya qiladi.

Bugungi kunda biz televizor, internet yoki ijtimoiy tarmoqlarda turli yomon ishlar – firibgarlik, yolg‘on, adolatsizlik haqida eshitamiz. Go‘yo jamiyat “axloqiy kasalliklar” bilan og‘rigan kabi tuyuladi.

Lekin har qanday kasallikka davo bo‘lgani kabi, bu illatlarga qarshi ham bitta eng kuchli davo bor. Bu davo – HALOLLIK.

Halollik – bu Vijdon degan ma‘naviy shifokorning eng kuchli vaksinasi. Agar insonning ichida halollik bo‘lsa, u yolg‘onni tan olmaydi, boshqalarning haqqiga tegmaydi, adolatdan chetga chiqmaydi. Demak, halollik odamni yomon yo‘llardan himoya qiladigan eng kuchli “immunitet”dir.

O‘qituvchi o‘quvchilarga savollar beradi:

1. Sizningcha, halollik nima?
2. Halol bo‘lish osonmi? Nega oson yoki nega qiyin, deb o‘ylaysiz?
3. Nega halollikni “vaksina” deb atayapmiz? Bu so‘zni halollik bilan birga ifodalashdan maqsad nima?

O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin aytadilar. O‘qituvchi ularning javoblarini tinglab, muhim jihatlarni umumlashtiradi va mavzuga chuqurroq kirib boradi.

Motivatsion o‘yin: “Axloqiy virus yoki halollik immuniteti?”

O‘qituvchi: Bolajonlar, hozir biz kichkina, lekin juda qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz. Men sizlarga turli vaziyatlarni aytaman. Agar bu vaziyat “axloqiy virus” bo‘lsa – qo‘lingizni pastga tushiring. Agar bu vaziyat “halollik immuniteti” bo‘lsa – qo‘lingizni yuqoriga ko‘taring.

O‘qituvchi vaziyatlarni aytadi:

1. Do‘stingizning ruchkasini ruxsatsiz olib qo‘ydingiz.
2. Topib olgan pulni egasiga qaytardingiz.
3. Uy vazifasini qilmaganingizni yashirib, “qildim” dedingiz.

4. Navbatda o'zingizdan oldin kelganlarni hurmat qilib kutdingiz.
5. Birovning mehnatini o'zingizniki deb ko'rsatdingiz.
6. O'qituvchi ko'rmasa ham, qoidaga amal qildingiz.

O'quvchilar har bir vaziyatda qo'l harakati bilan javob beradilar.

O'qituvchi: Ajoyib! Demak, sizlar allaqachon qaysi ishlar "axloqiy virus", qaysilari esa "halollik immuniteti" ekanini ajrata olasizlar.

Agar har kuni halollikni tanlasak, bizning "ichki immunitetimiz" kuchayib boradi. Bu esa bizni yolg'on, aldov va adolatsizlikdan himoya qiladi.

Mana shu sababli bugungi darsimiz "Halollik vaksinasi" deb nomlangan.

Qani ayting-chi, "halollik vaksinasi" degan ibora qayerdan paydo bo'lganini bilasizlarmi? Kim bu iborani birinchi bo'lib ishlatgan?

O'quvchilar javobi tinglanadi

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, "halollik vaksinasi" degan iborani birinchi bo'lib muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishlatganlar. Ya'ni ushbu birikma va tushunchaning muallifi u kishi bo'ladilar.

Har qanday mamlakat rivojlanishi uchun birinchi navbatda o'g'riliklar, firibgarliklar va korrupsiyaga qarshi kurashishdan ishni boshlaydi. Chunki yuqorida aytganimizdek, bu illatlar jamiyatni ham, mamlakatni ham kasal qiladi. Kasal bo'lgan vujud esa o'smaydi, rivojlana olmaydi, hamma kuchi va quvvati shu kasalliklarga ketib qoladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda "Yangi O'zbekiston quramiz" degan g'oyani aytdilar. Shundan so'ng bizda katta islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning eng birinchisi korrupsiyaga qarshi kurashning kuchayishi bilan bo'ldi.

Shundan so'ng u kishi "Har bir davlat xizmatchisi "halollik vaksinasi" bilan emlangan bo'lishi kerak", dedilar. Ya'ni halollik bilan, korrupsiyaga qarshi toqatsizlik bilan O'zbekistonimizni rivojlantiramiz dedilar.

Kelinglar, hozir davlatimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash va halollik yo'lida olib borilayotgan katta ishlar haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'li

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/397

O'qituvchi: Bugungi darsimizda biz halollikning hayotdagi o'rni, u odamga va jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida gaplashamiz. Maqsadimiz – har biringizda halollikka bo'lgan ishonchni mustahkamlash.

Qani, boshladik!

II. ASOSIY QISM. (25 daqiqa)

O‘qituvchi: Tasavvur qiling: ko‘chada ketyapsiz va tasodifan 100 AQSh dollari topib oldingiz. Siz qanday yo‘l tutasiz? Nima qilgan bo‘lardingiz?

O‘quvchilar o‘z fikrlarini aytadilar.

O‘qituvchi: Ajoyib javoblar bo‘ldi, rahmat! Endi yana bir misolga e‘tibor qaratamiz. O‘tgan yili bir yurtdoshimiz aynan shunday vaziyatda topilgan pulni egasiga qaytarib bergan. Bu haqda **kun.uz** saytida [videorolik](#) ham tayyorlangan.

Unda aytilishicha, Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida yashaydigan Elmurod Mamirjonov O‘zbekiston-Rossiya yo‘nalishida odam tashiydi. Taksist bir kuni mijozlarni olib O‘zbekistonga qaytayotganida Astraxan shahrida 5 ming dollar solingan hamyonni topib oladi. U hamyonning egasini topish uchun ijtimoiy tarmoqqa xabarlar chiqaradi. Bir xorazmlik yigit pulning egasi bo‘lib chiqdi. Pullar o‘z egasiga qaytarildi. Dollarlari topilganidan xursand bo‘lib ketgan aka bir qop Xorazm guruchi va 200 dollar suyunchi puli tashlab ketadi.

O‘qituvchi: Sizning fikringizcha, haydovchining bu qarorini qanday baholash mumkin? Uning xatti-harakati nimasi bilan boshqalardan ajralib turadi?

➤ Haydovchini o‘rnida bo‘lganingizda qanday qaror qabul qilgan bo‘lardingiz? Qaroringizning sababi nima bo‘lardi?

➤ Insonni bunday halol ishga nima undaydi, deb o‘ylaysiz – vijdonmi, qo‘rquvmi yoki tarbiya?

➤ Haydovchining ishi jamiyatga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi, muhokama qilinadi.

O‘qituvchi: Barakalla, bolajonlar! Sizlar halollik haqida juda chiroyli va to‘g‘ri fikrlarni aytdingiz. Endi esa halollik deganda nima nazarda tutiladi, ya’ni nima mumkin-u nima mumkin emas degan savolga javob beruvchi videorolikni tomosha qilamiz. Marhamat!

Vizual kontent

Halollik: nima yaxshi-yu, nima yaxshi emas! (1-qism)

<https://youtu.be/5oDgjsnvSjI>

Video muhokamasi

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, endi esa ekrandagi (doskadagi) rasmga diqqat bilan e‘tibor qaratishingizni so‘rayman.



Ushbu rasmda qanday vaziyat tasvirlangan?

Bu vaziyatda qanday yo‘l tutish to‘g‘ri bo‘ladi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi, muhokama qilinadi.

O‘qituvchi: Bolalar, sizlar suratda ko‘rgan holat korrupsiya, ya’ni poraxo‘rlik deyiladi. Korrupsiya – bu juda yomon illat. Uni faqat bitta tashkilot yoki bir nechta idora o‘zi yo‘q qila olmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat davlat organlari emas, har bir fuqaro, har bir o‘quvchi ham mas’uldir.

Agar jamiyatdagi odamlar halol bo‘lsa, qonunga amal qilsa, pora bermasa va olmasa, unda korrupsiya asta-sekin yo‘qoladi. Shuning uchun bu illatga qarshi hamma birgalikda kurashsa, yaxshi natijaga erishish mumkin.

So‘rashingiz mumkin: “Aynan men korrupsiyaga qarshi nima qila olishim mumkin, bu ishni kattalar qilyapti, men maktab o‘quvchisiman-ku”, deb. Sizning korrupsiyaga qarshi kurashga qo‘shadigan eng katta hissangiz – bu poraxo‘rlikni yomon ko‘rish va unga toqatsiz bo‘lishingizdir. Sizlar bugun korrupsiyaga toqatsiz yosh avlod bo‘lsangiz, ertaga katta bo‘lgach, korrupsiyaga toqatsiz jamiyatga aylanasiz.

Korrupsiyada pora bergan ham, olgan ham birdek aybdor sanaladi. “Majbur bo‘lgan”, “bermasa ishi bitmas edi” yoki “u odam pulni kasal onasini davolatish uchun olgan” degan bahonalarga uchmang. Har qanday muammo va masalani hal qilishning halol va qonuniy yo‘li bor, shu yo‘ldan yurishni tanlash kerak. Agar siz poraxo‘rlikni oqlamasangiz, unga toqatsiz bo‘lsangiz, avvalo, o‘zingiz katta bo‘lganingizda pora bermaysiz va olmaysiz. Qolaversa, poraxo‘rlikni qoralash orqali poraxo‘rlarga qarshi kurashasiz.

Bolalar, yurtimizda korrupsiyaga qarshi haykal qo‘yilganini bilasizlarmi? Hozir bizga yaxshi tanish yosh muxbir Sirojiddinning shu Haykal yonidan qilgan reportajini tomosha qilamiz. Ekranga diqqat qilamiz.

Vizual kontent

Toshkent city hududidagi “ochiq qo‘l” monumenti

https://youtu.be/rp_6IqTEozo

O‘qituvchi: Guvohi bo‘lganingizdek, ushbu monument 2023-yil 19-dekabrda Tashkent City xalqaro ishbilarmonlik markazi hududida ochilgan bo‘lib, xalqaro hamjamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa’y-harakatlarini ifodalaydi. Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy ishtirok etdi.

Kafti ochiq qo‘l ko‘rinishida metallardan ishlangan ushbu o‘n ikki metrlik kompozitsiya halollik, pok amal va niyatlarni, korrupsiyaga nisbatan mutlaq toqatsizlikni, dunyoning barcha mamlakatlarini unga qarshi kurashishda birlashishga chaqirishni anglatadi.

Endi aytinglar-chi, davlatlar uchun va xalqaro hamjamiyat uchun korrupsiyaga qarshi kurashish nima uchun kerak? Nimaga turli xalqaro tashkilotlar mamlakatlarning korrupsiya holati bo‘yicha turli dokladlar va reytinglar e‘lon qilishadi?

Chunki korrupsiya kam bo‘lgan mamlakatlarga xalqaro investorlar ko‘proq qiziqadi. Nega? Chunki ular o‘z pulini adolatli va shaffof qoidalar asosida ishlaydigan joyga kiritishni xohlaydi. Agar qonunlar hammaga bir xil ishlasa, biznes rivojlanadi, yangi ish o‘rinlari ochiladi va mamlakat iqtisodiyoti o‘sadi.

Xalqaro hamjamiyat ham korrupsiyadan xoli va ochiq davlatlar bilan hamkorlik qilishni afzal ko‘radi. Chunki bunday mamlakatlarda xalqaro jinoyatchilik, taqiqlangan narsalar savdosi yoki terrorizm kabi xavflar ancha kam bo‘ladi.

Shuning uchun, hatto yer yuzidagi kichik bir davlatning ham halol va shaffof bo‘lishi faqat o‘sha mamlakat uchun emas, balki butun dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlashga xizmat qiladi.

Pauza

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, “Kelinlar qo‘zg‘aloni” filmini ko‘rganmisiz? Satira va yumorga boy bu asarda o‘ta jiddiy, tomoshabinni o‘yga cho‘mdiradigan sahnalar ham bor. Masalan, Farmonbibining uyiga bir ayol keladi, Farmonbibi o‘g‘illarini chaqirib bunday deydi:

– Bolajonlarim, men sizlarga harom tomoq yedirganmanmi? O‘g‘rilik qil deb o‘rgatganmanmi?

– Yo‘q, – deydi bir ovozdan yetti o‘g‘il.

– Bir gapimni ikki qilganmisizlar, o‘rtaga tushsam pora olasizlarmi?

– Oyi, sizni hurmat qilamiz, lekin bu iltimosingizga yo‘q deymiz.

– Hammalaringga ming rahmat! Ming marta qulluq, – deb Farmonbibi farzandlariga ta’zim qiladi. Bu ta’zim zamirida bolalariga halollikdan bergan saboqlari besamar ketmagani, ularning diyonatli va to’g’riso’z bo’lib ulg’ayganiga shukronalik tuyg’usi bor edi.

Bu filmning xalqimiz mehriga sazovor bo’lganining boisi Farmonbibining yuragi tozaligi, farzandlarini halol luqma bilan boqqani, ularni o’g’irlik, harom-xarishdan yiroq bo’lishga undaganidadir, aslida.

Aslida, bizning milliy adabiyotimiz, teatr va kino san’atimizda halollik, korrupsiyaga, noqonuniy ishlarga, firibgarlik, o’g’irlik kabi illatlarga qarshi targ’ibot kuchli. Bu asarlar bejizga xalqimiz yuragidan joy olmagan. Hozir sizlarga shunday asarlar tavsiya etilgan videorolikni qo’yib beraman. Diqqat bilan tomosha qiling va bu asarlarning nomlarini yozib oling. Albatta uydagilar bilan bu spektakllarga tushinglar.

Vizual kontent

Halollik mavzusidagi spektakllar

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/398

O’qituvchi: Endi esa sizlar bilan bir o’yin o’ynaymiz.

“Halol qo’l” va “Yolg’onchi qo’l” o’yini

2 ta kartochka:

 **Halol qo’l.**

 **Yolg’onchi qo’l.**

Vaziyatlar o’qituvchi tomonidan o’qib beriladi:

1. “Sinfda yerga tushib qolgan telefonni topding va darhol o’qituvchiga topshirding.” – *Qaysi qo’lga qo’yamiz? Nima uchun?*
2. “Uy vazifasini bajarmading, lekin sinfdoshingning daftaridan ko’chirib olding.” – *Qaysi qo’l? Sababi?*
3. “Imtihonda yoningdagi o’quvchi javobni aytib bermoqchi bo’ldi, sen esa rad etding.” – *Qaysi qo’lga qo’yamiz?*
4. “O’qituvchi savol berganda bilmasang ham, bilaman deb javob berding.” – *Bu qaysi qo’l? Nega?*
5. “Do’sting ayb qilgan bo’lsa ham, uni himoyalash uchun yolg’on gapirding.” – *Qaysi qo’lni tanlaysan? Nima uchun?*
6. “Topilgan pul egasini topish qiyin bo’lsa ham, maktab ma’muriyatiga topshirding.” – *Qaysi qo’lga mos keladi?*
7. “Uyda ota-onang so’ragan ishni bajarmay, “bajardim” deb aytding.” – *Qaysi qo’l? Sababi?*

8. “Xatoyingni tan olib, uzr so‘rading, hatto buning uchun tanbeh olsang ham.” – *Qaysi qo‘lga qo‘yamiz?*

9. “Musobaqada yutqazgan bo‘lsang ham, raqibingni tabriklading.” – *Qaysi qo‘l?*

10. “Bahoni ko‘tarish uchun bahona topib, yolg‘on sabab aytding.” – *Qaysi qo‘l? Nima uchun?*

O‘quvchilar har bir vaziyatni halol va yolg‘on sifatida baholaydi.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar. Ba’zida odam biror xato qilib qo‘yishi mumkin. Bu bilan u bir umrga nohalol odam bo‘lib qolmaydi, albatta. Xatodan to‘g‘ri xulosa chiqarib, hayotini o‘zgartirib katta muvaffaqiyatlarga erishganlar ham bor. Hozir shunday akalaringizdan biri – Avstraliyada o‘qib kelib, bugun yuqori lavozimda ishlayotgan huquqshunosning hikoyasini eshitamiz. Marhamat, ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Avstraliyada o‘qigan o‘zbekistonlik yigit hikoyasi

<https://youtu.be/alM83H68khc>

III. YAKUNIY QISM (10 daqiqa).

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi mashg‘ulot davomida sizlar bilan halollikning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikrlashdik, turli amaliy vaziyatlar orqali to‘g‘ri qaror qabul qilish qanchalik muhimligini ko‘rdik.

Bir narsani unutmasligimiz kerak: halol inson bo‘lish – bu boshqalarga emas, birinchi navbatda o‘zimizga bo‘lgan hurmatimiz va g‘amxo‘rligimizdir.

Agar har birimiz o‘z vazifamizni halol ado etsak:

- jamiyatda ishonch kuchayadi,
- adolat qaror topadi,
- korrupsiya kamayadi,
- mehnatning haqiqiy bahosi oshadi,
- kelajagi porloq davlat barpo etiladi.

Keling aziz o‘quvchilar, sizlar bilan bugungi darsimizni umumlashtirgan holda hafta shiorini o‘rgansak:

“Halollik – qalbning eng yaxshi bezagidir”.

O‘qituvchi shiorni doskaga yozadi.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, jamiyatda halol insonlar qancha ko‘p bo‘lsa, halollik o‘z-o‘zidan ko‘payib boradi. Masalan siz halol bo‘lsangiz, o‘rtog‘ingiz halol

bo'lsa, butun maktabimiz bolalari halol bo'lishsa, hech narsa yo'qolmaydi, tushirib qoldirilgan pullar yo buyumlar tez egasiga qaytadi, hamma uy vazifasini o'zi qiladi va bilimli bo'ladi, birov birovni g'iybat qilmaydi va hokazo. Ya'ni halollik ko'p bo'lsa, avvalo o'zimizga yaxshi bo'ladi. Jamiyatda ham shunday – halollik qancha ko'p bo'lsa va aynan siz halollik qilsangiz, u sizga albatta qaytadi.

Hozir shu haqida videorolik tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Yaxshilik qachondir qaytadi!

<https://youtu.be/Hntpg8tCn3I>

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, endi sizlarga kichik, ammo juda muhim vazifa – **“Halollik haftaligi”** **challenjni** e'lon qilaman.

Bugundan boshlab bir hafta davomida har biringiz quyidagilarni qilasiz:

- yolg'on gapirmaysiz;
- boshqalarning narsasiga beso'roq tegmaysiz;
- o'z vazifangizni halol bajarasiz;
- hatto hech kim ko'rmasa ham to'g'ri ish qilasiz.

Har kuni kechqurun o'zingizdan bitta savol so'raysiz:

“Bugun men halollik vaksinasi bilan yashadimmi?”

Keyingi mashg'ulotimizda kimlar halollikni kundalik hayotida qo'llaganini, qaysi vaziyatlarda to'g'ri qaror qilganini birgalikda muhokama qilamiz.

Esda tuting: katta o'zgarishlar aynan kichik, halol qarorlardan boshlanadi.

Kelinglar, birgalikda aytamiz:

“Men halollikni tanlayman!”

O'qituvchi va o'quvchilar:

“Men halollikni tanlayman!”

O'quvchilar o'qituvchi ortidan ushbu shiorlarni takrorlashadi.

O'qituvchi: Halol bo'ling, halol yashang va boshqalarga ham halollik namunasi bo'ling.

Shu bilan darsimiz tugadi. Xayr, salomat bo'ling.